

MUROJAATLAR IZIDAN...



MUROJAATLAR IZIDAN...

Bugun tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tuman prokurori, 2-sektor rahbari Sadirali Mirzokarimov bilan tumanning Sarikanda mahallasida bo'lishdi. Mahalla raisi Bahodirjon Safoyevning so'zlariga ko'ra, ayni kunda mahallaning "Anorbog'" ko'chasida shag'allashtirish ishlari olib borilyapti.

Mahalla ahli va ushbu ko'chada yashovchi fuqarolar murojaatidan so'ng shag'allashtirish ishlari boshlangan va ayni kunda ushbu xayrli ish davom etmoqda. Olib kelingan shag'allarni to'kish va tekkislashda mahalla ahli faol ishtirok etmoqda.

Tuman hokimi nomiga mazkur ko'chada yashovchi fuqaro Saodatxon To'rayevadan tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha murojaat tushdi. So'x tumani hokimi mazkur xonadonda bo'lib, fuqaroning oilaviy ahvolini ko'zdan kechirdi va hokim kumagi bilan mazkur fuqaro tuman tibbiyot birlashmasi ichki kasalliklar bo'limiga davolanish uchun yotqizildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-03 17:33:14